

O‘ZBEKISTON – BAG‘RIKENG DIYOR

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich talabasi

Hozirgi globallashuv davrida bag‘rikenglik tushunchasi ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bag‘rikenglik deganda, turli fikr, e‘tiqod, millat yoki turmush tarziga ega bo‘lgan insonlarning o‘zaro bir-birini hurmat qilishi hamda huquqlarini tan olish tushuniladi. Bag‘rikenglik tufayli davlatlararo nizolar barham topadi, jamiyatda o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlar hukm suradi. Shuningdek, bu ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlab, turli madaniyat va qarashlarni birlashtirgan holda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi.

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat hisoblanib, hozirda bu yerda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Shuningdek, mamlakatda 16 ta diniy konfessiya mavjud. Davlatimizda ularning faoliyati qonun bilan belgilangan hamda bu uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ma’lumt o‘rnida aytish lozimki, hozirgi kunda O‘zbekistonda 147 ta milliy madaniy markaz, shuningdek, 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritadi. Respublika davlat ta’lim muassasalarida darslar 7 ta tilde: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tilida olib boriladi. Teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar 12 ta tilde efirga uzatiladi hamda gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop qilinyapti.

O‘zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan islohotlari qatorida millatlararo totuvlik hamda diniy bag‘rikenglik masalalari ham o‘rin olgan. Xususan, Asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning 19–moddasida: *“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”* – deya ta’kidlab qo‘yilgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taklifii bilan 30-iyul sanasini “Xalqlar do‘stligi” kuni sifatida belgilash va har yili ushbu kunni nishonlash yo‘lga qo‘yildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami yildan yilga oshib bormoqda va davomli ravishda amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilanjabrlangan 100 nafar falastinlik bolalar va ayollar hamda ularning hamrohlarini O‘zbekistonga evakuatsiya qilinganligi, ular sog‘liqni saqlash markazlari va kasalxonalarda istiqomat qilishlarini va O‘zbekiston hukumati ularni oilalarining barcha ehtiyojlarini ta’minlashi yuqoridagi so‘zimizning isbotidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 7-ustuvor yo‘nalishi sifatida

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatic, va faol tashqi siyosat olib borishga bag'ishlangan “Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash” yo'nalishida tegishli vazifalar belgilab olingan.

Umuman olganda, O'zbekistonda bag'rikenglik azaliy qadriyat sifatida shakllanib ulgurgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol qilib, sobiq ittifoq davrida Shomahmud Shorasulovlar oilasi tomonidan II jahon urushi paytida turli millatli yetim bolalarni asrab olib, o'z fazandlaridek katta qilganligini ko'rsatishimiz mumkin. O'z o'rnida, bunday bag'rikenglik muhitini bardavom saqlash ham barchamizning insoniy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doim sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy knfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu bizninng eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”.

**NON MAHSULOTLARINING KIMYOVIY TARKIBI.
INSON OZUQASIDA NON BULKA MAHSULOTLARINING
AHAMIYATI**

Ibragimov Anvar Kuchkorovich,

Ilmiy rahbar, Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi

Rahmatova Sevinch Fazliddin qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti,

Shahrisabz filiali 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Non mahsulotlari iste'mol qilishga tayyor bo'lgan muhim oziq-ovqat hisoblanadi. Bu mahsulotlarning ozuqaviy sifati past, chunki bug'doy donining ozuqaviy tarkibi past. Vitamin va minerallarga boy bo'lgan meva va sabzavotlar, guruch kepagi unlari va oqsil mahsulotlari non mahsulotlarini ozuqaviy boyitish uchun o'simlik oqsili manbalari sifatida samarali ishlatilishi mumkin. Ushbu maqolada non mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, non mahsulotni boyitish uchun dunyo tajribasi asosida mamlakatimiz hududida olib borilayotgan izlanizshlar ko'rib chiqiladi.*